

Oriental Journal of Education



WOMEN'S HONOR AND RIGHTS IN ISLAMIC SOURCES: HISTORICAL, LEGAL, AND SPIRITUAL ANALYSIS

Nodirabegim K. Saidova

Senior Lecturer

International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Islamic law, Holy Qur'an, Hadith, women's rights, mahr, inheritance, right to education, gender equality, social status.

Received: 15.03.26

Accepted: 16.03.26

Published: 17.03.26

Abstract: This scholarly paper examines the position of women in society, their rights, and the respect accorded to them based on the primary sources of Islam, namely the Holy Qur'an and the Sunnah. The study comparatively analyzes the status of women in the pre-Islamic period and the social, economic, educational, and legal reforms introduced with the advent of Islam. The role and status of women as mothers, wives, daughters, and full members of society are explored from the perspective of Islamic jurisprudence (fiqh).

ISLOM MANBALARIDA AYOLLAR E'ZOZI VA HUQUQLARI: TARIXIY, HUQUQIY VA MA'NAVIY TAHLIL

Nodirabegim K. Saidova

Katta o'qituvchi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Islom huquqi, Qur'oni Karim, Hadis, ayollar huquqlari, mahr, meros, ta'lim olish huquqi, gender tengligi, ijtimoiy maqom.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezis islom dinining asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim va Sunnat asosida ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqlari va ularga ko'rsatilgan e'zozni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda islomgacha bo'lgan davrdagi ayollar holati va islom kelgach joriy qilingan ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy va huquqiy islohotlar qiyosiy o'rganiladi. Ayolning ona, rafiqqa, farzand va jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatidagi maqomi islom huquqshunosligi (fiqh) nuqtai nazaridan yoritilgan.

ПОЧИТАНИЕ И ПРАВА ЖЕНЩИН В ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКАХ: ИСТОРИЧЕСКИЙ, ПРАВОВОЙ И ДУХОВНЫЙ АНАЛИЗ

Нодирабегим К. Саидова

Старший преподаватель

Международной исламской академии Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламское право, Священный Коран, хадис, права женщин, махр, наследование, право на образование, гендерное равенство, социальный статус.

Аннотация: Данная научная работа посвящена анализу положения женщин в обществе, их прав и уважительного отношения к ним на основе основных источников ислама — Священного Корана и Сунны. В исследовании проводится сравнительный анализ положения женщин в доисламский период и социальных, экономических, образовательных и правовых реформ, введённых после прихода ислама. Статус женщины как матери, супруги, дочери и полноправного члена общества рассматривается с точки зрения исламского права (фикха).

Kirish. Ayolning jamiyatdagi oʻrni, huquqlari va qadr-qimmatini masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida dolzarb ijtimoiy, huquqiy va maʼnaviy muammolardan biri boʻlib kelgan. Turli sivilizatsiyalar va madaniyatlarda ayollarga boʻlgan munosabat bir xil boʻlmagan: ayrim jamiyatlarda ular muayyan huquqlarga ega boʻlgan boʻlsa, boshqalarida esa ijtimoiy hayotdan cheklangan yoki ikkinchi darajali mavqega tushirilgan. Shu nuqtai nazardan, ayollar maqomi va huquqlarining tarixiy taraqqiyotini oʻrganishda islom dinining oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom dini VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan davrda ayollarning huquqiy va ijtimoiy holati murakkab ahvolda edi. Qiz bolalarning tiriklay koʻmilishi, ayollarning meros huquqidan mahrum etilishi, nikoh va oilaviy munosabatlarda ularning manfaatlarini eʼtiborga olinmasligi kabi holatlar keng tarqalgan edi. Qurʼoni Karim va Paygʻambar Muhammad (s.a.v.) sunnati ushbu adolatsizliklarga barham berib, ayollarga insoniy qadr-qimmat, mulkiy mustaqillik, taʼlim olish, mehnat qilish va meros olish kabi muhim huquqlarni kafolatladilar. Natijada ayolning jamiyatdagi mavqei tubdan oʻzgardi va u ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisiga aylandi.

Qurʼoni Karimda erkak va ayol Alloh huzurida teng masʼuliyatga ega inson sifatida talqin qilinadi. Islom manbalarida ayolning ona sifatidagi maqomi yuksak eʼzozlanib, unga hurmat va gʻamxoʻrlik koʻrsatish diniy burch sifatida baholanadi. Hadis manbalarida ham ayollarning ilm olishga, mulk egasi boʻlishga, tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishga va jamiyat hayotida faol qatnashishga boʻlgan huquqlari oʻz ifodasini topgan. Shu jihatdan islom huquqshunosligi ayollar huquqlarini himoya

qilish va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqqan.

Bugungi globallashuv va gender tengligi masalalari kun tartibiga chiqayotgan bir davrda islom manbalarida ayollar huquqlarining yoritilishi va ularning zamonaviy talqini alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ayrim hollarda islom dinining ayollarga munosabati haqida noto'g'ri yoki biryoqlama qarashlar uchrab turadi. Shuning uchun Qur'oni Karim, hadislar va fiqhiy manbalar asosida ayollarning huquq va erkinliklarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning tarixiy ildizlari hamda ma'naviy asoslarini ochib berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Insoniyat tarixi davomida ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o'rni doimo bahsli va murakkab masalalardan biri bo'lib kelgan. Qadimgi sivilizatsiyalarda ko'pincha ayollar mulk sifatida ko'rilgan, ularning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlari keskin cheklangan edi. Eramizning VII asrida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan Islom dini jamiyatda inqilobiy o'zgarishlar yasadi, xususan, ayollarning huquqiy layoqatini e'tirof etib, ularning sha'ni va qadr-qimmatini yuksak darajaga ko'tardi [5, 45-b.].

Bugungi globallashuv davrida islom va ayol masalasida turli xil qarashlar, ba'zan noto'g'ri talqinlar va stereotiplar uchramoqda. Shu sababli, masalaga xolis yondashish, sof islomiy manbalar — Qur'oni Karim oyatlari va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislariga tayangan holda ilmiy tahlil olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezisning maqsadi islom huquqida ayollarga berilgan kafolatlar va ularning insoniy qadr-qimmatini ilmiy jihatdan asoslab berishdir.

Islom manbalarida ayollar huquqlarini to'g'ri anglash uchun, avvalo, islomdan oldingi jamiyat (johiliyat davri) dagi vaziyatni o'rganish lozim. Qadimiy arab jamiyatida ayollar meros olish huquqidan mahrum bo'lgan, aksincha, ularning o'zlari meros buyumi sifatida qarindoshlarga o'tgan [6, 112-b.]. Eng achinarlisi, qiz farzand ko'rish oriyat va nomus sanalib, chaqaloqlarni tiriklayin ko'mish kabi yovvoyi odatlar mavjud edi.

Qur'oni Karim bu holatni keskin qoralab, inson huquqlari tarixida birinchi bo'lib qiz farzandlarning yashash huquqini qat'iy himoya qildi: “Qachon ulardan biriga qiz (ko'rgani haqida) xushxabar berilsa, g'azabga to'lib, yuzlari qorayib ketadi... (Ular) o'zlariga kelgan «xushxabar»ning yomonligidan (uyalib) qavmidan yashirinib olurlar. (Endi o'ylay boshlar:) uni xorlik-tahqirlikka ko'nib olib qolsinmikin yoki tuproqqa qorsinmikin-a? Ogoh bo'lingizkim, ular eng yomon (nohaq) hukm qilurlar” [3, Nahl surasi, 58-59-oyatlar].

Islom dini qiz farzandni ko'payish obyekti yoki yuk emas, balki Allohning ne'mati va rahmat eshigi deb e'lon qildi. Hadislarda qiz farzandlarni chiroyli tarbiya qilgan ota-onalarga jannat xushxabari berilishi buning yaqqol dalilidir [1, 210-b.].

Islom ta'limotiga ko'ra, erkak va ayol insoniyatning ikki teng huquqli qismidir. Ular bitta asldan (bitta jondan) yaratilgan bo'lib, insoniy qadr-qimmat jihatidan o'rtalarida hech qanday farq yo'q [4, 88-b.].

Qur'oni Karimning Niso (Ayollar) surasi 1-oyatida shunday marhamat qilinadi: "Ey odamlar! Sizlarni bir jondan (Odamdan) yaratgan va undan juftini (Havvoni) yaratib, ikkisidan ko'plab erkak va ayollarni tarqatgan Rabbingizdan qo'rqingiz!" [3, Niso surasi, 1-oyat]. Bu oyat ayol kishi erkakdan past darajada yaratilmaganini, balki ular bir xil ilohiy manbaga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Islomda jins ma'naviy darajani belgilamaydi. Taqvo, savobli amallar va oxiratdagi mukofot masalasida erkak va ayol mutlaqo tengdir. Ahzob surasining 35-oyatida Alloh taolo musulmon erkaklar va musulmon ayollar, mo'min erkaklar va mo'min ayollar, itoatkor erkaklar va itoatkor ayollarni sanab o'tib, ularning barchasiga birdek mag'firat va ulug' ajr tayyorlab qo'yganini bayon qiladi. [3, Ahzob surasi, 35-oyat].

Islom dini butun jahon sivilizatsiyasi tarixida birinchilardan bo'lib ayollarga to'laqonli iqtisodiy mustaqillik va mulk huquqini taqdim etdi. G'arbiy Evropada ayollar faqat XIX asr oxiriga kelibgina qisman mulkka egalik qilish huquqini qo'lga kiritgan bir paytda, islom bu huquqni VII asrdayoq qonuniylashtirgan edi [5, 74-b.].

Nikoh paytida erkak ayolga berishi shart bo'lgan mahr (moddiy hadya) bevosita ayolning shaxsiy mulki hisoblanadi. Ota-onasi yoki eri uning ruxsatisiz bu mulkka daxl qila olmaydi [3, Niso surasi, 4-oyat].

Islom huquqiga ko'ra, ayol kishi (ona, rafiqqa, qiz, opa-singil maqomida) merosdan o'zining qat'iy belgilangan ulushiga ega [4, 95-b.].

Ayol kishi ishlash, tijorat qilish, o'z mulkini tasarruf etish va undan kelgan daromadni o'zi istagandek sarflash huquqiga ega. Hadicha binti Xuvaylid (r.a.) Makkadagi eng yirik va muvaffaqiyatli tijoratchi ayollardan biri bo'lgani va Payg'ambarimiz (s.a.v.) bu ishni qo'llab-quvvatlaganlari islomda ayollar biznesining yorqin tarixiy namunasidir [6, 143-b.].

Islomda oilani moddiy jihatdan ta'minlash to'liq erkakning (ota, er, aka-uka) zimmasidadir. Ayol kishi o'zi ishlasa ham, o'zining daromadini oila xarajatlariga sarflashga majbur emas [4, 102-b.].

Ilm olish islomda faqat erkaklar uchun emas, balki ayollar uchun ham farz qilingan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'z hadislarida: "Ilm talab qilish har bir musulmon (erkak va ayol) uchun farzdir", deb ta'kidlaganlar [2, 34-h.]. Islom tarixida Oisha onamiz (r.a.) o'z davrining eng yetuk faqihasi, hadisshunos olimasi va tibbiyot bilimdoni bo'lganlar. Ko'plab sahobalar hatto eng murakkab huquqiy va diniy masalalarda ham u kishiga murojaat qilishgan [1, 155-b.].

Islomda ayolni majburlab erga berish qat'iy man qilinadi. Qiz bolaning roziligisiz o'qilgan nikoh islom huquqida haqiqiy hisoblanmaydi [1, 289-b.]. Shuningdek, agar ayol oilaviy hayotda zulm

ko'rsa yoki erining roziligini topa olmasa, sud yoki qozi orqali ajrashish talabini qo'yish (Xulu' huquqi) imkoniyatiga ega [4, 118-b.].

Islom tarixining ilk davrlaridayoq ayollar ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etganlar. Umar ibn Xattob (r.a.) xalifaligi davrida bozor nazoratchisi (muhtasib) vazifasiga Shifo binti Abdulloh ismli ayolning tayinlanishi islomda ayollarning davlat va jamoat ishlarida mas'uliyatli lavozimlarni egallashlari mumkinligini isbotlaydi [6, 185-b.].

Islom dinida ayolning eng ulug' maqomi — bu onalik darajasi hisoblanadi. Qur'oni Karimda otanaga yaxshilik qilish, ayniqsa, onaning mashaqqatlari bir necha bor alohida ta'kidlanadi: "Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi uni qiynalib ko'tarib yurdi va uni qiynalib tuqdi..." [3, Ahqof surasi, 15-oyat].

Mashhur hadislarning birida bir kishi Payg'ambarimiz (s.a.v.) huzurlariga kelib: "Odamlar orasida mening chiroyli muomalamga eng haqli inson kim?" deb so'raganda, Rasullulloh (s.a.v.) ketma-ket uch marta "Onang", to'rtinchi marta esa "Otang" deb javob berganlar [1, 412-b.]. Shuningdek, "Jannat onalar oyoqlari ostidadir", degan tamoyil butun islom olamida ayolga, onaga bo'lgan yuksak ehtiromning cho'qqisi hisoblanadi [2, 98-h.].

Umuman olganda, Islom manbalarida — Qur'on va Sunnatda ayol kishi erkin, huquqlari kafolatlangan, qadr-qimmatini yuksak to'laqonli shaxs sifatida e'tirof etiladi. Islom dini o'n to'rt asr muqaddam ayollari uchun joriy etgan mulkiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy huquqlar zamonaviy demokratik jamiyatlarning inson huquqlari deklaratsiyalari bilan hamohangdir [5, 190-b.].

Bugungi kunda ayrim sharq yoki islom o'lkalarida kuzatilayotgan ayollar huquqlarining cheklanishi yoki ularga nisbatan adolatsizliklar aslo islom dinining asl ta'limotiga kirmaydi, balki ular mahalliy urf-odatlar, johiliy sarqitlar yoki diniy manbalarni noto'g'ri, radikal talqin qilish natijasidir. Haqiqiy islom huquqi har doim ayolning ilmiy izlanishlarini, ijtimoiy faolligini, uning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o'rini to'liq qo'llab-quvvatlaydi va himoya qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islom dini ayollarning qadr-qimmatini, huquqlari va jamiyatdagi mavqegini yuksaltirishda muhim tarixiy va huquqiy ahamiyat kasb etgan. Qur'oni Karim va Sunnat manbalarida ayol inson sifatida e'zozlanib, uning sha'ni, mulki, oilaviy va ijtimoiy huquqlari himoya qilingan. Islom ta'limoti ayolni jamiyatning ajralmas va faol a'zosi sifatida e'tirof etib, unga ta'lim olish, mulk egasi bo'lish, mehnat qilish, meros olish hamda oilaviy hayotda muhim o'rin tutish huquqlarini bergan.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, islomning ilk davrida amalga oshirilgan huquqiy va ijtimoiy islohotlar ayollar mavqegining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Xususan, mahr, meros, nikoh va ta'lim olish bilan bog'liq me'yorlar ayollarning huquqiy himoyasini ta'minlagan va ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirgan. Shu bilan birga, onalik maqomining ulug'lanishi va ayollarga

nisbatan hurmat-eh-tiromning targ'ib etilishi islomning ma'naviy qadriyatlar tizimida muhim o'rin egallaydi.

Bugungi kunda gender tengligi, inson huquqlari va ijtimoiy adolat masalalari dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda islom manbalarida ayollarga berilgan huquq va imkoniyatlarni xolis hamda ilmiy asosda o'rganish muhimdir. Bu nafaqat diniy merosni chuqurroq anglashga, balki jamiyatda ayollar huquqlarini ta'minlash va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, Qur'oni Karim va Sunnatda bayon etilgan tamoyillar ayollarning huquqiy maqomini belgilash, ularning qadr-qimmatini himoya qilish va ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan mukammal tizimni tashkil etadi. Ushbu tamoyillar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, adolatli va barqaror jamiyat qurishda muhim nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi' as-Sahih (Ishonchli to'plam). 1-jild. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1992. – 560 b.
2. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy (Hofiz Abu Iso at-Termiziy asarlari). – Toshkent: Sharq, 1999. – 480 b.
3. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi va tafsiri. Tarjimon va mufassir: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 640 b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2013. – 512 b.
5. Turkiy A. A. Islomda inson huquqlari va uning zamonaviy huquqiy tizimlar bilan qiyosiy tahlili. – Ar-Riyod: Dorul-Asima, 2000. – 320 b.
6. Xuzariy M. Islom tarixi va uning ijtimoiy-huquqiy asoslari. – Qohira: Dorul-Maorif, 2005. – 410 b.